BOLALARDA MAS'ULIYAT HISSINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHI VA OTA-ONA HAMKORLIGINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Xujamiyarov Sa'dullo Choriyevich
Toshkent iqtisodiyot pedagogika instituti
Tillar va maktabgacha ta'lim kafedrasi
p.f.f.d(PhD)., dotsent v.b

https://doi.org/10.5281/zenodo.15287505

ANNOTATSIYA

Zamonaviy sharoitlarda bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining o'zaro hamkorligi roli oshib borayapti. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning o'zaro ta'siri muammosi oxirgi vaqtda eng dolzarb muammolar qatoriga kirgan. O'zgargan zamonaviy oila, moliyaviy va ijtimoiy-madaniy tabaqalanish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning ko'pligi, ta'lim va tarbiya olishning keng imkoniyatlari o'zaro ta'sirning yangi shakllarini izlab topish zaruriyatini vujudga keltiradi.

KALIT SO'ZLAR

mas'uliyat, oila, ota-ona, tarbiyachi, bola, ta'lim, pedagog, muammo.

АННОТАЦИЯ

В современных условиях возрастает роль взаимодействия семьи и дошкольной организации в формировании у детей чувства ответственности.Проблема взаимодействия дошкольной организации и семьи была одной из самых актуальных в последнее время. Изменившаяся современная семья, финансовое и социокультурное расслоение, обилие современных информационно-коммуникационных технологий, широкие возможности получения образования и воспитания создают необходимость поиска новых форм взаимодействия.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

ответственность, семья, родитель, воспитатель, ребенок, воспитатель, педагог, проблема.

ABSTRACT

In modern conditions, the role of family and preschool organization interaction in the formation of children's sense of responsibility is increasing.The problem of interaction between the preschool organization and the family has been one of the most urgent in recent times. The changed modern family, financial and socio-cultural stratification, abundance of modern information and communication technologies, wide educational and upbringing opportunities create the need to search for new forms of interaction.

KEY WORDS


responsibility, family, parent, educator, child, educator, teacher, problem.

KIRISH

Mamlakatimizda maktabgacha ta’limni shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar tub zamirida yosh avlodni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki, maktabgacha bolalik davri – bu bolaning shakllanishidagi o‘ziga xos davr bo‘lib, unda bolalar o‘zining ichki ruhiy jarayoni va xatti-harakatlarining tartibga solinishini nazorat qiladi va bola o‘z faoliyati mohiyatini anglay boshlaydi.

Ushbu muammo bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarni o‘rganish asosida ***maktabgacha yoshdagi bolalarda mas’uliyat hissining shakllanganligi*** – bu bolaning xulq-atvorini ma’naviy-axloqiy qoidalari nuqtayi nazaridan aks ettirishga tayyorligi hamda boshqalar va o‘zining oldida o‘z faoliyati natijasi uchun javobgar bo‘lishni aks ettiruvchi shaxsiy xususiyatdir degan xulosaga keldik.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar o‘rtasida insonparvarlik pedagogikasi nuqtayi nazaridan mas’uliyat hissini shakllantirish maktabgacha katta yoshdagi bolalarning mas’uliyatli xatti-harakatlarining shaxsiy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini bosqichma-bosqich shakllantirishni o‘z ichiga oladi **(1-rasm).**



1-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy va ijtimoiy-madaniy fazilatlari tizimi

Ijtimoiy-madaniy fazilatlar tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarning mas’uliyat hissi ularning xatti-harakatlarida mas’uliyat hissini namoyon qilishi uchun zarur bo‘lgan bilimlar va muhim qadriyatlarning kombinatsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu fazilatlar ijtimoiy-madaniy yo‘nalishga kiritilgan bo‘lib, uning asosida faoliyat tavsifi va shaxsning xulq-atvori shakllanadi.

L.V.Rimenovaning fikricha, “ijtimoiy-madaniy yo‘naltirish bola uchun muhim bo‘lgan tarkibiy funksiyalarni amalga oshirish va hissiy-emotsional komponentlarni o‘z ichiga olgan murakkab shakllanishdir. Bu bolaning o‘ziga xos ichki motiv faoliyati, birinchi navbatda boshqalarni his qilish, uning hissiy holati, vaziyatni tahlil qilish, umumlashtirish va diagnostik baholash, uning shakllanish tendensiyalarini oldindan bilish bilan bog‘liq”[1].


Maktabgacha ta’lim sohasining yetakchi olimalaridan F.R.Qodirovaning fikricha: “Bolalarning shakllanishi va tarbiyalanishining yosh bilan bog‘liq davrlarida faoliyatning turli xillari yonma-yon bo‘ladi va o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi, lekin bunda ularning roli bir xil bo‘lmaydi: har bir bosqichda faoliyatning yetakchi turi ajratiladi, unda bolaning shakllanishidagi asosiy yutuqlar namoyon bo‘ladi. Har bir faoliyat ehtiyoj, sabablar, faoliyat maqsadi, mavzusi, vositalari, buyumlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar va nihoyat, natija bilan ajralib turadi” deya maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyati ularning yosh bosqichlariga xos ravishda takomillashib borishini ta’kidlaydi[2].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirish jarayoni ongli ravishda sodir bo‘lishi juda muhimdir. Shuning uchun bizda bola mas’uliyatning tushunchasi, ma’naviy mohiyati, fazilati va bu fazilat zarurligi va uni o‘zlashtirishning foydalari haqida bilimga ega bo‘ladigan yakdil tasavvur bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, bolaning ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish uchun majoziy sabablar va motivlar bo‘lishi muhimdir. Motivning paydo bo‘lishi sifatga munosabatni keltirib chiqaradi, bu esa o‘z navbatida ijtimoiy-madaniy hissiyotlarni yoki irodaviy emotsiyalarni shakllantiradi.



2-rasm. Ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish bosqichlari

Harakatlar va xulq-atvorlar shakllangan sifatning kuchliligini tekshirish va umumiy tasdiqlash imkonini beradigan kommunikativ funksiyasini qabul qiladi. Shunday qilib, ma’naviy-axloqiy sifatni shakllantirish mexanizmi shakllanadi.



3-rasm. Bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirish komponentlari

T.N.Doronova, V.V.Gerbova, T.I.Grizik va boshqalar “bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotida bo‘lgan davridagi faoliyatini quyidagicha taqsimlaydilar: 25 foiz maxsus tashkil etilgan tarbiya mashg‘ulotlarga, 75 foiz esa tengdoshlari va tarbiyachilari bilan qo‘shma jamoaviy tadbirlarga sarflaydi. Bu o‘z navbatida kundalik (hayotiy) nostandart yoki standart vaziyatlarni bolalarni o‘qishga majburlamasdan, balki o‘z faolligini rag‘batlantiradigan holda, ta’limiy va tarbiyaviy loyihalariga aylantirish imkonini beradi. Keyin har bir topshiriq bola uchun mazmunli va qiziqarli g‘oyani bajaradi va egallagan bilimlarni o‘zlashtirish oson va sezilmaydigan tarzda sodir bo‘ladi”[3].

Ta’lim va tarbiya jarayonining asosiy maqsadi – bolaning erkin, ijodiy shaxsiyatini shakllantirish, shuning uchun uni muvofiqlashtirish moslashuvchan bo‘lishi kerak, ya’ni loyihaning faqat ma’lum bosqichlarini tashkil qilib, bolalarning ta’limini va tarbiyasini to‘g‘ri yo‘naltirish kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxsiy-faoliyatli yondashuvni tatbiq etish asosida mas’uliyat hissini shakllantirish mumkin. Chunki barcha shaxsiy sifatlar va fazilatlar bola hayotini tashkil etuvshi faol faoliyatda shakllanadi. Maktabgacha yoshidagi bolalar uchun ***o‘yin, mehnat, qoidalar va bilish*** faoliyatlari tavsiflidir.

Maktabgacha ta’limda ***mehnat faoliyati*** davomida bolalar mehnat ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar. Lekin, bu kasbiy ko‘nikmalar va qobiliyatlar va malakalarnigina emas, balki bolaga kattalardan mustaqil bo‘lishga ko‘mak beradigan ko‘nikmalardir. Bolaning mehnati majburiy tavsifli bo‘lmasdan, holatli tarzda aynanlik ko‘rinishga ega bo‘ladi, ammo mehnatda shaxsning juda ko‘p hayotiy muhim sifat va fazilatlari shakllanishi ma’lum.

Xuddi shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda ***bilish faoliyati*** ham kognitiv tavsiflidir. Aqliy tarbiya va ta’limning mazkur jihati bolada tafakkur amallarini, bilish jarayonlarini va qobiliyatlarini shakllantirish sifatida qaraladi.

Hamkorlik – bu teng asosda kommunikatsion muloqot, bunda hech kim ko‘rsatish, nazorat qilish, baholash va diagnostikalash imtiyoziga ega emas. O‘zaro ta’sir, hamkorlikda – muloqot madaniyati orqali faoliyatni birgalikda amalga oshirish usulini ifodalaydi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila bolada mas’uliyat hissini tarkib toptirish uchun yagona shaxsiy va jamoaviy makon yaratishga intilishi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oilaning o‘zaro ta’siri muammosi oxirgi vaqtda eng dolzarb muammolar qatoriga kirgan. Ota-onalar maktabgacha ta’lim tashkiloti – bola ta’lim va tarbiyasida faqat yordamchi ekanligini, shuning uchun ular butun mas’uliyat hissini tarbiyachi-pedagoglar zimmasiga

yuklatishlari va ta’lim-tarbiya jarayonidan chetlatishlari mumkin emasligini aslo unutmasliklari kerak.

“Sharq va G‘arbda keng tanilib “Shayx ur-rais” nomiga sazovor bo‘lgan Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) “Tib qonunlari” va “Tadbiri manzil” asarlarida oila, ota-ona hamda bola munosabatlariga oid pedagogik va psixologik qarashlari bayon etilgan. Uning oilani shaxslararo munosabatlar manbai, o‘zaro ta’sir o‘tkazishning qulay ijtimoiy-madaniy muhiti, milliy an’analar ta’sirchanligi, taqlid, yuqish fenomenlari negizi ekanligi to‘g‘risidagi mulohazalari to hozirgi davrgacha o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q. U bola tarbiyasida ota-onalarning umuminsoniylik tamoyillariga amal qilishlarini ta’kidlaydi. Tarbiyachi, ota-onalarga uni qattiq tana jazosidan farqli o‘laroq, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma’qulligini uqtirgan. Ibn Sino oila boshlig‘i oldiga katta talablar qo‘yadi, farzandlarni bir-biriga nisbatan mehr-oqibat tuyg‘usi orqali tarbiyalash, iliq ruhiy muhitni yaratishni uqtiradi. Oiladagi noxush tarbiya faqat shu oilagagina salbiy ta’sir qilib qolmasdan, balki boshqa oilalarga ham xuddi shunday ta’sir qilishini oqilona tarbiya oila baxtining muhim asosi ekanligini ta’kidlaydi. Ibn Sino bola yomon xarakter xislatning egallashini kutmasdan turib, uni ijobiy fazilatlar bilan tanishtirib, bolaga yaxshi odobni singdirish kerak, – deb yozadi. Uning ta’kidlashicha, sharoit (muhit) qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, farzand kamoloti ota-onalarning asosiy vazifasidir, ular davlat boshlig‘imi yoki jamiyatning oddiy bir a’zosimi, bari bir tarbiya masalasida ular uchun bir xil talab qo‘yilishi kerak, chunki bu ijtimoiy-madaniy ehtiyojdir”[4].

D.M.Mallayevning fikricha, “maktabgacha ta’lim tashkiloti va oilaning o‘zaro hamkorligining yangi tarbiyaviy tizimini loyihalashni: tashxislash usullarini tanlash va yaratishni; qiyinchiliklarni bartaraf etish va korreksion ishlash tizimini ishlab chiqish; dinamik shakllanayotgan umumpedagogik qobiliyatlar tizimini; qadriyatli mo‘ljallarni o‘zgartirishni nazarda tutadi”[5][1].

Ta’kidlash joiz, hamkorlik va oilaviy tarbiya masalalari shaxsiy tasavvurlarni hisobga olgan holda, shuningdek, turli o‘zlashtirishlar orqali shakllanadi.

1

Маллаев Д.М. Воспитание детей в духе патриотизма и дружби народов в семье/ Д.М. Маллаев, Р.О. Омарова, З.З. Гасанова.- М.: СМУР Академия, 2008. — 143 с.

[2] Musurmonova O. Oila ma’naviyati – milliy g‘urur: O‘quv qo‘llanma / S.Ochil umumiy tahriri ostida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999. – 200 b.

Oilada bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirish g‘oyalari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri talqin etilmagan bo‘lsa-da, A.Avloniy, Behbudiy va boshqa ma’rifatparvarlar asarlarida rivoj topdi. Ularning kitoblarida ushbu mas’uliyat tushunchasining dastlabki asoslari: ota-onaga hurmat, oilada ma’naviy-axloqiy me’yorlarga rioya qilish oshib berildi.


O. Musurmonovaning fikricha “bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirish bilan bog‘liq qiyinchiliklar va tushunmovchiliklar shu sabab bilan yuzaga chiqadiki, ota-onalar o‘z kamchilik va xatolarini to‘g‘rilamasdan, o‘z nuqsonlarini oqlaydilar, bolalarida esa bu kamchiliklarni ko‘rishni istamaydilar. Bolaga yaxshi tarbiya berish uchun avvalo o‘zing tarbiya qilayotgan farzandingning ko‘z oldida yaxshi yashashing kerak”[2] [6].

O‘tgan asrning saksoninchi yillarida maktabgacha ta’lim tashkilotlari va oilaning o‘zaro hamkorligi muammosiga ikki xil yondashuv – avtoritar va demokratik yondashuv belgilab berildi. Ushbu ikki yo‘nalish ota-onalarni yaxlit pedagogik jarayonga olib kirish vazifasini qo‘yadi, biroq ular buning yechimini turlicha ko‘radi. Birinchi yo‘nalish vakillari ota-ona singari subyektlarga nisbatan talablarni oshirish va kuchaytirish yo‘lidan borishdi. Ota-onaga qo‘yiladigan yagona pedagogik talablar ishlab chiqildi. Ularda ota-onaning asosiy majburiyatlariga bolalarning kelajagi, ularning jismoniy, aqliy va ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga majburlik kiradi. Ayni shu damda ota-onalarga bolalar huzurida maktabgacha ta’lim tashkiloti va tarbiyachi-pedagoglarini tanqid qilish yoki tanbeh berish ta’qiqlanadi, ular farzandlari ko‘z o‘ngida tashkilot nufuzini oshirish va bolalaridan tarbiyachi-pedagogning iltimos va talablarini aniq bajarishni talab qilishga majbur. Tabiiyki, bunday munosabat oilaning maktabgacha ta’lim tashkilotidan yiroqlashuviga ko‘maklashdi, ota-onaning maktabgacha ta’lim tashkiloti, tarbiyachi-pedagoglariga bo‘lgan ishonchini sindirdi, o‘z muammolari doirasiga o‘ralashib qolishga majbur qildi.

Oilaning barcha a’zolari uchun burch, mas’uliyat sohasining mazmuni yaxshi ishlash va tahsil olish, bir-biriga g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lishga intilishda ko‘rinadi. Burch barcha maishiy, mehnatga doir ishlarni bajarishga, badiiy ijtimoiy madaniyatni egallashga, sog‘lom muhitda ishlashga, maroqli dam olish va faol, to‘g‘ri hayot kechirishga undaydi. Manfaat sohasi esa oila a’zolarini ijtimoiy-madaniy hayot, mehnat va ijoddagi birgalikdagi maroqli faoliyat asosida birlashtiradi, yaqinlashtiradi.

Yigirmanchi asrning to‘qsoninchi yillarida mamlakatimizni qamrab olgan ma’naviy-axloqiy inqiroz bois oilaviy tarbiya muammolarini yangicha mushohada etish talab qilindi, chunki dunyo o‘zgardi, zamonaviy bolalar umuman boshqacha bo‘lishdi. Bu davrda pragmatik o‘zaro munosabatlar mo‘ljallari ola boshlandi: o‘sib kelayotgan avlodda mas’uliyatli munosabatga bosh o‘rin ajratilmaslik holatlari kuzatilgan.

Oilada bolalar bilan olib boriladigan har qanday suhbat tarbiyaviy tavsifga ega bo‘lishi lozim. Bolalar o‘z yaqinlarini osonroq tushunadilar. Ular bilan muloqotga kirishishi tabiiy sharoitlarda amalga oshadi. Shuning uchun biz tadqiqot davomida oilalarga bolalar bilan olib boriladigan ishlarni maqsadli pedagogik ta’sir darajasiga ko‘tarish kerak degan xulosa asosida tajriba-sinov ishlari olib bordik. Bunda ota-onalar va bolalarning yaqinlari muayyan mavzu bo‘yicha suhbat olib borsa ham, ma’lum o‘yinni o‘ynasa ham mas’uliyatli shaxs sifatida o‘zini namoyon etishlari talab etiladi. Bolalar bilan olib boriluvchi pedagogik ishlar tibbiy, jismoniy, psixologik va kognitiv yo‘nalishlarda bo‘lishi bilan majmuaviy ko‘rinish oladi. Shuning uchun biz oilalarda bolalar bilan olib boriladigan har qanday suhbat, o‘yin, birgalikdagi turli faoliyatlarni tabiiy sharoitdagi hayotiy harakatlar va majmuaviy ta’sir orqali bajariladigan harakatlarga ajratdik.



1.2.6-rasm. Oilalarda bolalar bilan olib boriladigan pedagogik ishlar

Bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligini tashkil etish asosida:

bolalar muloqoti rivojini barcha kengayuvchi sohalari qarindoshlik, o‘quv, mehnat, dam olish va boshqa munosabatlarga yo‘naltiriladi;

bolada o‘quv va mehnat faoliyati, jamiyat oldidagi javobgarlik, intizom, jamoatchilik va o‘zaro yordam berish talablariga munosabatni shakllantiradi;

bolalarga jinslarning o‘zaro munosabatlari va kelgusi hayotdagi mas’uliyatli munosabatdan saboq beradi;

tarbiyachi va ota-ona hamkorligi bolada ijtimoiy-madaniy mazmun, o‘zini baholash va tanqid qilish darajasini shakllantiradi, vaqtni behudaga o‘tkazmaslikka motivatsiyalaydi.

Pedagogik, psixologik, ilmiy va falsafiy tahlil natijalarini umumlashtirib, shunday xulosa qilish mumkinki, bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligi ta’lim va jamiyat rivojining yangi sharoitlarida yaxlit pedagogik jarayonning yetakchisi sifatida gavdalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Рименова Л.В. Формирование социальной направленности у детей младшего школьного возраста и игровая игра: автореферат диссертации. кандидат педагогических наук: 13.00.01 / АРН СССР. НИИ дошк. воспитания. – Москва, 1988. – 24 b.
2. Qodirova F., Toshpo‘latova Sh., A’zamova M. Maktabgacha pedagogika. –T.: Ma’naviyat, 2013. – 160 b.
3. Доронова Т.Н. Детская книга «Дошкольникам о художниках»: Из опита работы: Кн. для воспитателя дет. сада: [Сборник] / Составитель Т.Н. Доронова. - М.: Просвещение, 1991. - 124 b.
4. Zunnunov A. Pedagogika tarixi // Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: 2004. -335 b.].
5. Маллаев Д.М. Воспитание детей в духе патриотизма и дружбы народов в семье/ Д.М. Маллаев, Р.О. Омарова, З.З. Гасанова.- М.: Академия СМУР,2008. — 143 б.
6. Musurmonova O. Oila ma’naviyati – milliy g‘urur: O‘quv qo‘llanma / S.Ochil umumiy tahriri ostida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999. – 200 b.